

UO‘T: 633.511:631.572

G‘O‘ZANING F₅ KOMBINATSIYA OILALARINING QIMMATLI XO‘JALIK BELGILARINI SHAKLLANISHI

Rasulov Soyibjon Tolibjonovich - dotsent, Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy nav va tizmalarni chatishtirish natijasida olingan duragay avlodlarini turli ekish sxemasida ekib o‘rganish asosida o‘rta tolali g‘o‘zaning tola hosildorligini oshiruvchi omillar, ya‘ni tola indeksi yuqori bo‘lgan hamda vilt kasalligiga bardoshli boshlang‘ich ashyolar yaratish haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: G‘o‘za, o‘simlik, ekish sxemasi, chatishtirish, duragaylar, tola chiqimi, tola mahsuldorligi, hosildorlik, tola indeksi, tezpishar.

ФОРМИРОВАНИЕ ЦЕННЫХ ХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРИЗНАКОВ F₅ КОМБИНАЦИОННЫХ СЕМЕЙ ХЛОПКА

Расулов Сойибжон Толибжонович - доцент, Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий, Узбекистан.

Аннотация: В данной статье рассмотрены факторы, повышающие выход волокна средневолокнистого хлопчатника, то есть исходные материалы с высоким индексом волокна и устойчивостью к увяданию, на основе изучения гибридных поколений, полученных путем скрещивания местных сортов и гряд в разных схемах посадки. предоставляется информация о создании.

Ключевые слова: Хлопок, растение, схема посадки, скрещивание, гибриды, урожайность, урожайность волокна, показатель волокна, скороспелост.

FORMATION OF VALUABLE ECONOMIC TRAITS OF F₅ COMBINATION FAMILIES OF COTTON

Rasulov Soyibjon Tolibjonovich - Associate Professor, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology, Uzbekistan

Annotation: In this article, the factors that increase the fiber yield of medium fiber cotton, that is, starting materials with a high fiber index and resistance to wilt disease, based on the study of hybrid generations obtained by crossing local varieties and ridges in different planting schemes information about creation is provided.

Key words: Cotton, plant, planting scheme, crossbreeding, hybrids, fiber yield, fiber yield, yield, fiber index, quickness.

So'ngi yillarda iqlimning global o'zgarishi davrida kasallik va zararkunandalarga, tashqi muhitning noqulay omillariga bardoshli bo'lgan g'o'za navlarini yaratish orqali tola hosildorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotlarimizda bir necha yillarda turli xil seleksion tanlashlar hamda daladagi fenologik kuzatuvlari va laboratoriya tahlillaridan so'ng aksariyat qimmatli xo'jalik belgilari boshqa duragay kombinatsiyalardan va andoza navidan yuqori bo'lgan o'rta tolali g'o'zaning T-18 tizmasi F₅ (UzPITI-203xT-19), T-20 tizmasi F₅ (UzPITI-203xS-2609), T-36 tizmasi F₅ (SultonxUzPITI-201) hamda T-55 tizmasi F₅ (Andijon-36xS-2609) kombinatsiyalarida oilalarning ko'sak vazni, mahsuldorligi, vilt kasalligi bilan zararlanishi va tola sifat ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Biz tadqiqotlarimizda o'rta tolali g'o'zaning T-18 tizmasini andoza Andijon-35 g'o'za navi bilan bir dona ko'sak vazni bo'yicha taqqoslab o'rganganimizda quyidagicha natijalar olindi. T-18 tizmasi F₅ (UzPITI-203xT-19) kombinatsiyasining 17 ta oilalari andoza Andijon-35 naviga nisbatan bitta ko'sak vazni bo'yicha taqqoslab o'rganilganida oilalarda 5,0 grammdan 6,4 grammgacha oraliqda bo'lganligi kuzatildi. T-18 tizmasi oilalaridan 4, 9 va 14 oilalar boshqa oilalarga nisbatan ko'sak vazni bo'yicha ajralib turganligi aniqlandi. Bu oilalardan 4-oilada ko'sak vazni 6,3 grammni, 9-oilada 6,4 grammni va 14-oilada 6,2 grammni, andoza Andijon-35 navida bo'lsa 4,8 grammni tashkil qilganligi hamda ushbu oilalar andoza naviga nisbatan ko'sak vazni 1,6 grammgacha yuqori ekanligi aniqlandi.

T-18 tizmasini andoza Andijon-35 g'oz'za navi bilan mahsuldorligi bo'yicha taqqoslab o'rganilganida quyidagicha natijalar olindi. T-18 tizmasi F₅ (UzPITI-203xT-19) kombinatsiyasining 17 ta oilalari andoza Andijon-35 naviga nisbatan mahsuldorlik bo'yicha taqqoslab o'rganilganida oilalarda bu ko'rsatkich 59,3 grammdan 112,3 grammgacha oraliqda bo'lganligi kuzatildi. T-18 tizmasi oilalaridan to'rtinchi, to'qqizinchi va o'n to'rtinchi oilalar boshqa oilalarga nisbatan bir tupdagi o'simlik mahsuldorligi yuqori ekanligi kuzatildi. Bu oilalarda 4-oilada mahsuldorlik 102,3 grammni, 9-oilada 94,2 grammni va 14 oilada 112,2 grammni, andoza Andijon-35 navida bo'lsa 56,2 grammni tashkil qilganligi hamda bir necha yillik yakka tanlovlar natijasida ushbu oilalar andoza naviga nisbatan mahsuldorlik 56,0 grammgacha yuqori ekanligi aniqlandi (1-jadvalga qarang).

Tadqiqotlarimizda o'rta tolali g'oz'zaning T-20 tizmasini andoza Andijon-35 g'oz'za navi bilan bir dona ko'sak vazni bo'yicha taqqoslab o'rganganimizda quyidagicha natijalar olindi. T-20 tizmasi F₅ (UzPITI-203xS-2609) kombinatsiyasining 17 ta oilalari andoza Andijon-35 naviga nisbatan bitta ko'sak vazni bo'yicha taqqoslab o'rganilganida oilalarda bu ko'rsatkich 5,6 grammdan 6,7 grammgacha oraliqda bo'lganligi kuzatildi. T-20 tizmasi oilalaridan ikkinchi, beshinchi, o'n birinchi va o'n oltinchi oilalar boshqa oilalarga nisbatan ko'sak vazni bo'yicha ajralib turganligi aniqlandi. Bu oilalardan ikkinchi oilada ko'sak vazni 6,4 grammni, beshinchi oilada 6,5 grammni, o'n birinchi oilada 6,7 grammi va o'n oltinchi oilada 6,3 grammni, andoza Andijon-35 navida bo'lsa 4,8 grammni tashkil qilganligi hamda ushbu oilalar andoza naviga nisbatan ko'sak vazni 1,9 grammgacha yuqori ekanligi aniqlandi.

T-20 tizmasini andoza Andijon-35 g'oz'za navi bilan mahsuldorligi bo'yicha taqqoslab o'rganilganida quyidagicha natijalar olindi. T-20 tizmasi F₅ (UzPITI-203xS-2609) kombinatsiyasining 17 ta oilalari andoza Andijon-35 naviga nisbatan mahsuldorlik bo'yicha taqqoslab o'rganilganida oilalarda bu ko'rsatkich 82,1 grammdan 108,6 grammgacha oraliqda bo'lganligi kuzatildi. T-20 tizmasi oilalaridan ikkinchi, beshinchi, o'n birinchi va o'n oltinchi oilalar boshqa oilalarga

nisbatan mahsuldorlik bo'yicha ajralib turganligi aniqlandi. Bu oilalardan ikkinchi oilada maxsuldorlik 102,4 grammni, beshinchi oilada 100,3 grammni, o'n birinchi oilada 98,2 grammni va o'n oltinchi oilada 108,6 grammni, andoza Andijon-35 navida bo'lsa 56,2 grammni tashkil qilganligi hamda ushbu oilalar andoza naviga nisbatan maxsuldorlik 52,4 grammgacha yuqori ekanligi aniqlandi.

G'o'zaning yangi navlarini yaratishda hosildorlik yuqori bo'lishiga katta talab qo'yiladi. Hosildorlik yuqori bo'lishida ko'sak vazni va maxsuldorlikning ortishi katta ahamiyatga ega. Ko'sak vazni qanchalik yuqori bo'lsa, maxsuldorlik ham ortadi, buning natijasida umumiy hosildorlik ortishiga olib keladi.

O'rta tolali g'o'zaning T-18 tizmasi F₅ (UzPITI-203xT-19) va T-20 tizmasi F₅ (UzPITI-203xS-2609) kombinatsiyalarida oilalarning ko'sak vazni va mahsuldorligi (2022 y).

1-jadval

T-18 tizmasi F ₅ (UzPITI-203xT-19) kombinatsiyasi oilalari	1 dona ko'sak vazni (gr)	Mahsul- dorligi (gr)	T-20 tizmasi (F ₅ (UzPITI-203xS- 2609) kombinatsiyasi oilalari	1 dona ko'sak vazni (gr)	Mahsul- dorligi (gr)
1	5,6	78,7	1	5,9	92,5
2	5,5	86,5	2	6,4	102,4
3	5,8	90,6	3	5,8	90,6
4	6,3	102,3	4	5,7	86,7
5	5,3	83,8	5	6,5	100,3
6	5,7	67,5	6	6,0	93,2
7	5,0	59,3	7	5,6	89,6
8	5,3	65,2	8	5,8	90,1
9	6,4	94,2	9	5,7	87,5
10	5,2	92,1	10	5,6	82,1
11	5,5	90,6	11	6,7	98,2
12	5,1	82,8	12	6,0	91,3
13	5,8	78,0	13	6,1	92,4
14	6,2	112,2	14	6,0	91,9
15	5,6	84,3	15	5,8	91,6
16	5,4	68,6	16	6,3	108,6
17	5,7	70,4	17	5,8	91,2
St. Andijon-35	4,8	56,2		4,8	56,2

Biz tadqiqotlarimizda o'rta tolali g'o'zaning T-36 tizmasini andoza Andijon-35 g'o'za navi bilan bir dona ko'sak vazni bo'yicha taqqoslab o'rganganimizda quyidagicha natijalar olindi. T-36 tizmasi F₅ (Sulton x UzPITI-201) kombinatsiyasining 18 ta oilalari andoza Andijon-35 naviga nisbatan bitta ko'sak vazni bo'yicha taqqoslab o'rganilganida oilalarda bu ko'rsatkich 5,5 grammdan 6,5 grammgacha oraliqda bo'lganligi kuzatildi. T-36 tizmasi oilalaridan uchinchi, yettinchi, o'n ikkinchi va o'n beshinchi oilalar boshqa oilalarga nisbatan ko'sak vazni ko'rsatkichi bo'yicha ajralib turganligi aniqlandi. Bu oilalardan uchinchi oilada ko'sak vazni 6,2 grammni, yettinchi oilada 6,5 grammni, o'n ikkinchi oilada 6,4 grammni va o'n beshinchi oilada 6,3 grammni, andoza Andijon-35 navida bo'lsa 4,8 grammni tashkil qilganligi hamda ushbu oilalar andoza naviga nisbatan ko'sak vazni 1,7 grammgacha yuqori ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. X.Эгамов, А.Рахимов, С.Расулов, Й.Хурматов. Изучение морфологических и хозяйственно-ценных признаков новых сортов хлопчатника в условиях Андижанского вилоята - Актуальные проблемы современной науки, 2019.
2. E.Khusanboy, K.I.Xayitmuratovich, R.S.Tolibjonovich... Increasing the uniformity of cottonvaries Andijan 35 sown in theandijan Reguon- PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 2020.
3. F.Toreev, B.Orozov, G.Shodmonova, S.Rasulov - Tolerance of cotton to certain biotic factors and fiber quality parameters of the ridges created by simple and complex hybridization. E3S Web of Conferences, 2023.
4. X.Эгамов, З.Рахронов, С.Бахронов, - Устойчивость новых сортов и линии хлопчатника к сосущим вредителям. Современные тенденции развития науки и ..., 2015.